

QANDLI DIABETNING IRSIY XUSUSIYATLARINI O'RGANISH**M.O. Muxiddinova, G.A.Dushanova, G.Z.Ziyadullayeva**

SHarof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti

Biokimyoviy tadqiqotlar asosida tibbiyotda uchraydigan kasallik holatlari va normal organizmda turli organlar va organ tizimlarining funktsional holatini aks ettiruvchi ko'rsatkichlarni o'rganish mumkin. Ba'zi kasalliklar uchun biokimyoviy testlar jigar, buyraklar, oshqozon osti bezining o'tkir kasalliklari va ko'plab irsiy kasalliklar uchun biokimyoviy ko'rsatkichlar muhim hisoblanadi. Biokimyoviy qon parametrlarining o'zgarishi ichki organlarning disfunktsiyasini ko'rsatadi.

Organizmda uglevod almashinuvi buzilishining eng keng tarqalgan ko'rsatkichi qon shakaridir. Qonda uning doimiy oshishi endokrin bezlar kasalliklarida, uglevod almashinuvining buzilishida va qandli diabet rivojlanishida kuzatiladi [1]. Qondagi shakar miqdorini o'rganish birinchi navbatda odatda ochlik paytida qon shakarini tekshirish hisoblanadi. Tashxis qo'yish uchun qondagi glyukoza darajasini ikki marta aniqlash zarur. Oxirgi yillarda qandli diabet kelib chiqishining irsiy asoslarini o'rganish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Ma'lumki, qandli diabet kelib chiqishida oilada kasallanganlar va ularda kasallik rivojlanishining darajasi tahlil qilinishi zarur. Bunday holatlarni aniqlash kelajakda oila a'zolaroda qandli diabet kelib chiqishining profilaktik choralarini ishlab chiqish va kasallik kelib chiqishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hisoblanadi. Ushbu mulohazalarni e'tiborga olgan holda, tadqiqot ishining oldiga qandli diabet bilan kasallangan oilalarning geneologik shajara asosida irsiy xususiyatlarini tahlil qilish maqsad qilib qo'yildi.

Tadqiqot ishlari Samarqand shahar endokrinologiya markazida ro'yxatga olingan bemorlarda 1 va 2 tip qandli diabet bilan kasallangan bemorlarning biokimyoviy tahlili va geneologik shajara asosida kasallik uchrashi chastotasi o'rganildi.

Olib borilgan tadqiqotlarda 1 tur qandli diabet bilan kasallangan bemorlarning klinik va biokimyoviy qon parametrlarini o'rganish va tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, asosiy qon parametrlariga ko'ra, leykotsitlar %, limfotsitlar %, granulotsitlar% va agranulotsitlar% miqdori normal darajada bo'lgan.

Qandli diabet bilan kasallangan bemorlar guruhida trombositlar miqdori biroz ko'payganligi aniqlandi, bu qon ivish faolligini oshishi, qon oqimidagi trombin darajasining ko'tarilishi va qon tomiri ichidagi tromblarning shakllanishini ko'rsatishi mumkin, bu patologik, surunkali tomir ichidagi mikrokoagulyatsiya omilining rivojlanishiga olib kelishi mumkin va kelajakda bemorlarda ateroskleroz va insult holatlarining kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

1 tip qandli diabet bilan og'riqan bemorlarda qondagi shakar miqdori nazorat variantidagi sog'lom shaxslarga nisbatan sezilarli darajada 2,5 baravar oshishi aniqlangan. Qonda shakarning bunday konsentratsiyasi mavjudligi qandli diabet tashxisini ko'rsatadi. Bemor bolalarning yoshini hisobga olgan holda - 10-14 yosh, tashxisni 1 tip diabet deb tasniflash mumkin [3].

2 tip qandli diabet bilan kasallangan bemorlarning biokimyoviy va klinik qon parametrlarini o'rganish, shuningdek, qondagi shakar miqdori nazorat variant darajasidan 3

baravar yuqori ekanligi aniqlangan. Bemorlarning yoshi 40-60 yosh, oilalarda saraton va virusli kasalliklarning mavjudligi, semirishga moyilligi kasallikni 2 tip qandli diabet deb tasniflash imkonini beradi [1,2].

O'tkazilgan tadqiqotlar 1 va 2 tip qandli diabet bilan kasallangan bemorlarning siydigida glyukoza miqdorini o'rganildi va barcha bemorlarning siydigida yuqori shakar miqdori mavjudligi aniqladi, siydikdagi shaka miqdori 112 dan 123 mmol / l gacha aniqlangan.

Olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, 1 va 2 tip qandli diabet bilan kasallangan bemorlarning qon va siydigining biokimyoviy tadqiqotlari venoz qon va siydikda glyukoza miqdorining nazorat darajasidan 3-4 baravar yuqori ekanligini ko'rsatdi. Qonda trombositlar sonining ko'payishi qon ivishining kuchayishi va tomir ichiga tromb hosil bo'lishini ko'rsatishi mumkin, bu ateroskleroz va insult uchun xavf omilidir.

Qandli diabet - turli patologiyalarning geterogen guruhi bo'lib, etiologik, patogenetik va klinik belgilari bilan ajralib turadi. 1 va 2 tipdagi qandli diabet genetik va atrof-muhitning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladigan murakkab geterogen multiomill va poligenli kasalliklar turiga kiradi. Bundan tashqari, 1 tip diabetning rivojlanishi normal genlarning kombinatsiyasi bilan belgilanadi, ularning aksariyati autoimmun jarayonlarning rivojlanishi natijasida kelib chiqadi. 2 tip qandli diabetning rivojlanishi Langergans orolchasi β -hujayralari tomonidan insulin sintezi va uning periferik organlardagi nishon hujayralar bilan o'zaro ta'sirini boshqaradigan ko'plab genlarning kombinatsiyasi bilan belgilanadi. Genealogik va populyatsion genetik tadqiqotlari qandli diabetning turli klinik shakllarining irsiylanish turini aniqlashga yordam beradi, shuningdek, kasallik kelib chiqishida mustqil genlar faoliyatini ochib beradi, kasallikning nozologik mustaqil shakllarini aniqlashga yordam beradi [1].

Yuqorida keltirilgan muloxazalarga asosan, 1 tip qandli diabetga irsiy moyillik tuzish orqali genealogik usuldan foydalangan holda o'rgandik.

Bemor T-v 14 yoshda, 1 tip qandli diabet tashxisi aniqlangan, ota-onasi kasallik tashuvchisi bo'lgan, opa-singillari sog'lom, oilada uchinchi farzand hisoblanadi. Uning 34 nafar qarindoshi tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, probandning otasi, shuningdek, uning ota tomonidagi xolasi onasi tomondan kasal ekanligi aniqlangan. Bobosi tashuvchi bo'lgan. Amakivachchaning otasi tomonida farzandi yo'q. Onasi tomondan opasi homilaga tushib qolgan. Qandli diabetning irsiylanishi retsessiv xususiyatini hisobga olgan holda. Bemor T-v 1 tip qandli diabetdan aziyat chekadi va uning opa-singillari bu kasallikning tashuvchisi hisoblanadi.

2 tip qandli diabetning irsiylanish xususiyati proband A-voy avlodi asosida o'rganilgan. U 45 yoshda, Samarqand shahrida yashovchi, oilada uchinchi farzand. Ota-onasi va egizak opalari sog'-salomat. U bir necha yildan beri qandli diabetdan aziyat chekadi. Otasi tomonidan otasi qandli diabet bilan kasallangan. Ammo u bu kasallikni tashqi omillar va uglevod almashinuvi buzilishidan olgan. Tashuvchi ona tomondan bobom aniqlangan. Xolasining ikkinchi farzandi homilasi bo'lgan. Shunday qilib, 1 va 2 tip qandli diabet bilan kasallangan bemorlarning avlodini o'rganish oilalarda kasallanishning ancha yuqori ekanligini aniqladi, bu qandli diabet genezisida genetik omillarning rolini ko'rsatadi.

Adabiy ma'lumotlar diabetga irsiy moyillikni ham ko'rsatadi [3]. 1 tip qandli diabetda genetik geterogenlik kuzatiladi, bu kasallik insulinning rivojlanishi va sintezini buzadigan turli xil gen guruhlari sabab bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. 2 tip qandli diabet insulinning

strukturaviy buzilishlarini yoki uning inaktivatsiyasini keltirib chiqaradigan genlar to'plami bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Дедов И.И., Кураева Т.Л., Ремизов О.В., Петеркова В.А., Носиков В.В., Щербачева Л.Н. Генетика сахарного диабета у детей и подростков. Пособие для врачей. М., 2003 г, 71 с.
2. Назаренко Г.И. Клиническая оценка результатов лабораторных исследований / Г.И. Назаренко, А.А. Кишкун. – Москва: изд-во Медицина, 2006., 532 с.
3. Панков Ю.А. Сахарный диабет и другая патология у пациентов с мутациями в генах INS или INSR // Сахарный диабет. 2012. № 4. С. 11–16.